

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.02.2020F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

HAMROYEV SAIDJON SANOYEVICH

**O‘ZBEKISTON XALQINING MILLIY YUKSALISHIDA
ADOLATPARVARLIKNI QAROR TOPTIRISHNING IJTIMOIIY
QONUNIYATLARI (IJTIMOIIY-FALSAFIY TAHLIL)**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2023

<https://buxdu.uz>

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
on philosophical sciences**

Hamroyev Saidjon Sanoyevich

О‘zbekiston xalqining milliy yuksalishida adolatparvarlikni qaror toptirishning ijtimoiy qonuniyatlari (ijtimoiy-falsafiy tahlil) 5

Хамроев Саиджон Саноевич

Социальные закономерности установления справедливости в национальном развитии народа Узбекистана (социально-философский анализ)..... 23

Khamroyev Saidjon Sanoyevich

Social pattern regularities of the establishment of justice in the national development of the population of Uzbekistan (social-philosophical analysis) 45

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 50

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.02.2020F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

HAMROYEV SAIDJON SANOYEVICH

**O‘ZBEKISTON XALQINING MILLIY YUKSALISHIDA
ADOLATPARVARLIKNI QAROR TOPTIRISHNING IJTIMOIIY
QONUNIYATLARI (IJTIMOIIY-FALSAFIY TAHLIL)**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2023

<https://buxdu.uz>

Falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasida B2022.3.PhD/Fal816 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertasiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertasiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Sharipov Abduxakimjon Ziyoitdinovich
falsafa fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Negmatova Shaxzoda Shuxratovna
falsafa fanlari doktori, professor

Bekmurodova Gulshod Hayitovna
falsafa fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Navoiy davlat pedagogika instituti

Dissertasiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.02.2020.F.72.08 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil “27” iyul soat 9⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65) 221-57-27, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertasiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1452 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-25-87.)

Dissertasiya avtoreferati 2023-yil “14” iyul kuni tarqatildi.
(2023-yil “14” iyul dagi 12 raqamli reestr bayonnomasi.)



Navro‘zova G. N.

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

Muzaffarov F.D.

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori, dotsent

Sharipova O.T.

Sharipova O.T.

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
falsafa fanlari doktori, dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda kechayotgan murakkab geosiyosiy jarayonlar, global iqtisodiy inqiroz xatarlarining keskinlashishi sharoitida adolat tamoyillari jamiyat tinch-totuvligi, taraqqiyoti hamda qonun ustuvorligini ta'minlash va munosabatlarni tartibga solishda muhim ahamiyat kasb etadi. Adolatga erishish va jamiyatda ijtimoiy tengsizlikni bartaraf etishning innovatsion yo'llarini izlash xalqning turmush darajasini oshirishga va davlatning izchil rivojlanishiga, ijtimoiy munosabatlarda manfaatlarni himoya qilish va muvozanatni ta'minlashda, qonun ustuvorligiga erishish hamda madaniy rivojlanishga olib keladi. Shu sababli, adolatparvarlikni ijtimoiy munosabatlarni ifodalovchi ijtimoiy-falsafiy kategoriya sifatida tadqiq etish, uning funksional xususiyatlari va ustuvor yo'nalishlarini ochib berish, bu tamoyillarni barqaror rivojlanish maqsadlari bilan uyg'unlashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon ilm-fanida jamiyatda adolatni qaror toptirish, adolatparvarlik g'oyalarini keng targ'ib qilishga, barqaror taraqqiyotni ta'minlashda adolatlilikni joriy etishning zamonaviy konsepsiyalarini ishlab chiqishga oid tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Adolat xalqlar o'rtasida tinchlikni ta'minlash va xavfsizlikka erishishda zarur omil bo'lib, u ijtimoiy taraqqiyotning muhim davrlarida, xalq va davlatning tarixiy taqdiriga ta'sir ko'rsatadigan chuqur ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar olib borilganda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai-nazardan adolatparvarlikka oid zamonaviy konsepsiyalarning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlarini, ularning jamiyatda namoyon bo'lish shakllari hamda g'oyaviy-mafkuraviy ahamiyatini, ijtimoiy davlat barpo etishdagi rolini nazariy-metodologik jihatdan tadqiq etish zarurati ortib bormoqda.

Mamlakatimizda "inson – jamiyat – davlat" tizimi asosida inson manfaatlari va adolat tamoyillari ustuvor ijtimoiy davlat barpo etish hamda xalqning farovon hayot kechirishi uchun munosib sharoit yaratib berishga oid islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. "Yangi O'zbekiston strategiyasining maqsadi – yurtimizning baxtli va barkamol insonlar farovon yashaydigan, ijtimoiy adolat tamoyillari to'liq qaror topgan, dunyoning eng rivojlangan, barqaror o'sayotgan va inson kapitali yuqori bo'lgan demokratik davlatlari qatoridan joy olishini ta'minlashdir. Buning uchun aholining barcha qatlamlariga munosib hayot darajasini va turmush sharoitlarini yaratib berish, ijtimoiy himoya tizimi samarasi, bandlik va daromadlar barqaror o'sishiga erishish, jamiyatning umumiy madaniyati, bag'rikenglik va mehribonlik fazilatlarini yanada oshirish bo'yicha olib borayotgan ezgu va savobli ishlarimizni yanada kuchaytirishni o'zimizning burchimiz, deb hisoblaymiz"¹. Shu boisdan, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni adolat bilan olib borish, ijtimoiy himoya siyosatini amalga oshirish va Yangi O'zbekistonda ijtimoiy davlatni barpo etishda adolatparvarlik tamoyillariga rioya qilishning funksional xususiyatlarini, ularni amalga oshirish yo'nalishlarini ochib berish hamda yoshlarni adolatparvarlik ruhida tarbiyalashning ustuvor vazifalarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

¹ Мирзиёев Ш. М. Янги Ўзбекистон стратегияси. Тошкент: Ўзбекистон, 2021. – Б. 264.

O‘zbekiston Respublikasining 2017 yil 3 yanvardagi O‘RQ-419-son “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida” qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2021 yil 4 martdagi PF-6181-son “2021-2025 yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020 yil 22 iyundagi PF-6012 “Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019 yil 9 oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019 yil 9 yanvardagi PF-5618-son “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida” farmonlari, 2021 yil 26 martdagi PQ-5040-son “Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori va Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 18 yanvardagi 23-son “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022 yil 21 fevraldagi 83-son “2030 yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2019 yil 31 dekabrda 1059-son “Uzluksiz ma‘naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari hamda mavzuga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ijtimoiy-ma‘naviy tafakkur tarixida ideal davlat, fuqarolik jamiyatida tenglik va erkinlik g‘oyalarining adolatga aloqador jihatlari Aflotun, Arastu, Konfutsiy, Sitseron merosida, sharqona adolat tamoyillari Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Nizomumulk, Amir Temur, Alisher Navoiy, Bobur, Koshifiy kabi mutafakkirlar merosida ilgari surilgan. Yangi va hozirgi zamon G‘arb olimlari T.Gobbs, J.Lokk, I.Kant, G.Gegel, I.Bentam, J.Mill, J.Roulz, R.Nozik, D.Gotier qarashlarida adolatning huquqiy asoslari rivojlantirilgan².

² Афлотун (Платон). Қонунлар. / Тарж. Урфон Отажон. – Тошкент: Янги Аср Авлоди, 2002. – 450 б.; Аристотел. Политика. / Тарж.С.А. Жебелев. – Москва: Издательство АСТ, 2022. – 384 с.; Конфуций. Великое учение. С комментариями и объяснениями. / Тарж.В.Малявин. – Москва: Издательство АСТ, 2019. – 256 с.; Цицерон, Марк Туллий. О государстве. / Тарж.В.О. Горенштейн. – Москва: Издательство АСТ, 2022. – 416 с.; Форобий, Абу Наср. Фозил одамлар шаҳри. / Тарж: А. Ирисов. – Тошкент: Янги Аср Авлоди, 2016. – 320 б; Беруний, Абу Райхон. Танланган асарлар. – Тошкент: Фан, 1968. – 458 б.; Низомулмулк. Сиёсатнома (Сияр ул-мулк). / Тарж. Ш. Воҳидов. – Тошкент: Янги Аср Авлоди, 2008. – 240 б.; Аллан Эдгар. Буюк Темур. – Тошкент: Янги Аср Авлоди, 2016. – 304 б.; Алишер Навоий. Садди Искандарий. Достон. / Туз. В.Раҳмонов – Тошкент: Ғафур Ғулом ном.халқ мероси нашр., 2020 – 640 б.; Захириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Тошкент: Ўқитувчи, 2008. – 368 б; Хусайн Воиз Кошифий. Футувватномаи султоний, Ахлоқий муҳсиний. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2011. – 376 б.; Гоббс Т. Левиафан или материя, форма и власть государства церковного и гражданского. - Москва: Соцэргиз, 1936. - 503 с.; Локк Дж. Сочинения в 3 томах. - М.: Мысль, 1985/1985/1988. - 621/560/668 стр.; Кант И. Сочинения в шести томах. - М.: “Мысль”, 1965. - 544 с.; Гегель Г.В. Философия права / Перев.Стопнер Б. Г. – Москва: Издательство АСТ, 2023. – 544 с.; Бентам

MDH olimlaridan Yu.Guseynov, N.Mushinskiy, M.Kochergin, G.Muntyan, S.Demin, O.Kulikova, G.Karnash, B.Kashnikov tadqiqotlarida adolatparvarlik g'oyalarining "tabiiy adolat" va "huquqiy tenglik", ijtimoiy taqsimlash, himoya qilishdagi o'rniga keng e'tibor qaratilgan. Ularda ijtimoiy adolat, mafkuraviy jihatdan fuqarolarga bir xil imkoniyat va teng shart-sharoitni yaratish, ma'naviy-axloqiy mas'uliyatini shakllantirishga alohida urg'u berilgan³.

Respublikamiz ilmiy jamoatchiligi orasida mavzuga doir ilmiy izlanishlar S.Shermuhamedov, S.Otamurodov, M.Qirg'izboyev, A.Xolbekov, V.Alimasov, T.Matibayev, J.Yaxshilikov va N.Muxammadiyev, A.Huseynova, Q.Nazarov, S.Choriev, Sh.Negmatova, G.Bekmurodova, T.Ch.Tilobov, F.Musayev, Z.Alimova, A.Sharipov tomonidan amalga oshirilgan. Ularning ilmiy tadqiqotlarida globallashtirish, taraqqiyot jarayonida adolat tamoyillarining o'rnini, fuqarolik jamiyatida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy omillar tadqiq etilgan. Shuningdek, S.Sultanov tadqiqotida O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida ijtimoiy adolat tamoyillarining ijtimoiy-falsafiy tahlilini, M.Teshaboyev jamiyatda ijtimoiy adolatni ta'minlashning prinsipial masalalari va falsafiy-huquqiy muammolarini tadqiq etishgan⁴.

Dissertatsiyani yozish jarayonida yuqorida qayd etilgan jahon va mamlakatimiz olimlarining tadqiqot ishlari muhim nazariy-metodologik baza sifatida xizmat

И. Введение в основания нравственности и законодательства. - Москва: РОССПЭН, 1998. - 416 с.; Джон Милль: Основы политической экономии с некоторыми приложениями к социальной философии. - Москва: Издательство Эксмо, 2007. - 1040 с.; Джон Ролз. Теория справедливости. / Научный редактор В. В. Целищев. - Новосибирск: Издательство Новосибирского университета, 1995, - 407 с.; Нозик Р. Анархия, государство и утопия / Пер. Б. Пинскера. - М.: ИРИСЭН, 2008. - 424 с.; Gauthier D. *Morals by Agreement*. - Oxford., 1986. - 367 p.

³ Гусейнов Ю. Г. Социальная справедливость и пути ее реализации: Автореф. дис. ... док. филос. наук. - Баку, 1991. - С.22; Мушинский Н.И. Концепция социальной справедливости в этико-политическом наследии Аристотеля: Автореф. дис. ... док. филос. наук. - Минск, 1994. - С.21; Кочергин М.С. Феномен социальной справедливости: Дис. ... канд. филос. наук. - Тверь, 2007. - С.139; Мунтян Г.М. Социальная справедливость: философские основания и формы понимания: Дис. ... канд. филос. наук. - Волгоград, 2009. - 138 с.; Демин С.Н. Социальная справедливость: (Философско-методологический анализ): Автореф. дис. ... док. филос. наук. - М., 1991. - С.16; Куликова О.О. Проблема социальной справедливости в споре Дж. Ролза и Р. Нозика: Дис. ... канд. филос. наук. - М., 2004. - С.134; Карнаш Г. Социальная справедливость: философские концепции и российская ситуация. - Москва, Издательство Московского гуманитарного университета, 2011. - С.211; Кашников Б. Н. Концепция общей справедливости Аристотеля: Опыт реконструкции // Этическая мысль. Вып. 2. / Отв. ред. А. А. Гусейнов. М., 2001. - С. 264;

⁴ Шермухамедов С. Ижтимоий тараккиёт ва маънавий маданиятнинг ўзаро таъсири. - Фарғона, 1999; Отамуротов С. Глобаллашув ва миллий-маънавий хавфсизлик. - Тошкент: O'zbekiston, 2013. - 456 б.; Қирғизбоев М. Фукаролик жамияти: генезиси, шаклланиши ва ривожланиши. - Т.: Ўзбекистон, 2010.; Холбеков А.Ж. Ўзбекистонда жамиятнинг демократлашуви жараёнида ижтимоий адолатни амалга ошириш муаммолари (сиёсий-социологик таҳлил). - Тошкент, 2001. - 276 б.; Матибаев Т. Ижтимоий ҳамкорлик ва демократия: давлат ва жамият ҳаётининг барқарор тараккиёт йўлида. «Билим ва интеллектуал салоҳият», Тошкент: 2019.; Қодирова З., Шарипов А., Алимасов В., Каримова Э., Мадаева Ш. Ёшлар ижтимоий фаоллиги ва толерантлигини юксалтиришнинг ижтимоий-фалсафий масалалари. - Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ институти, 2006. - 220 б.; Назаров Қ. Жаҳон фалсафаси қомуси. Икки томлик. - Тошкент: Ўзб.файл. миллий жам. нашр, 2019; Тилобов Т.Ч. Ижтимоий адолат тамойиллари ёшлар тарбиясининг муҳим омили. - Тошкент, 2017. - 149 б.; Алимова З.И. Ижтимоий адолат тамойиллари ва унинг ислом динида намоён бўлиш хусусиятлари: фалсафий таҳлил. - Тошкент, 2006. - 152 б.; Яхшиликков Ж., Мухаммадиев Н. Миллий ғоя: Ўзбекистонни ривожлантириш стратегияси. - Тошкент: Чўлпон, 2018. - 722 б.; Мусаев Ф. Демократик давлат қуришнинг фалсафий-ҳуқуқий масалалари. - Т.: Ўзбекистон, 2007. - 270 б.; Negmatova Sh.Sh. O'zbekistonda sog'lom raqobatni rivojlantirishning ma'naviy, axloqiy va huquqiy jihatlari. - T: Fan, 2016; Шарипов А. Янги Ўзбекистонда маънавий-мафкуравий ислохотлар: ижтимоий-фалсафий таҳлил. Монография. - Бухоро, 2021; Бекмуродова Г.Ҳ. Замонавий ижтимоий деструкция мазмуни ва шакллари. Монография. - Қарши: Фан ва таълим, 2022. - 132 б

qilganligini alohida qayd qilgan holda, shuni ta'kidlash lozimki, avvalo mazkur tadqiqotlarda adolat muammosining demokratik davlatga oid xususiyatlari, siyosiy-huquqiy jihatlariga, iqtisodiy-ijtimoiy manfaatlarga ta'siri nuqtai nazaridan o'rganilgan. Shu nuqtai nazardan mazkur dissertatsiyada adolatparvarlikning tarixiy ildizlari, zamonaviy modellari va hozirgi jamiyatda namoyon bo'lish shakllari bilan birga uning xalqimizning milliy yuksalishidagi o'rni, qaror toptirish qonuniyatlarining ijtimoiy-falsafiy ahamiyati ochib berilgan

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq II band "Yangi O'zbekistonda ma'rifatparvar davlat barpo etishning ijtimoiy-falsafiy va ma'naviy-axloqiy asoslarini takomillashtirish muammolari" (2022-2026-yy) tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi milliy yuksalish sharoitida adolatparvarlikni qaror toptirish qonuniyatlarining ijtimoiy-falsafiy xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

adolat va adolatparvarlik tushunchalarining ijtimoiy-falsafiy kategoriya sifatida shakllanish bosqichlari va rivojlanish metodologiyasini tadqiq etish;

Sharq va G'arb mutafakkirlari ijtimoiy-ma'naviy merosidagi adolatparvarlikka oid g'oyalarni tahlil qilish va ahamiyatini asoslab berish;

adolat to'g'risidagi zamonaviy konsepsiyalarning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish;

zamonaviy ijtimoiy tizimlarda adolatning ko'rinishlari, uning tamoyillari mohiyatini va funksional xususiyatlarini aniqlash;

mamlakatimizda ijtimoiy adolatni qaror toptirishga oid islohotlarning mazmun-mohiyatini ochib berish;

O'zbekistonda ijtimoiy davlat barpo etish va ma'rifiy jamiyat poydevorini yaratishda adolat tamoyillarini qaror toptirish mexanizmlarini takomillashtirish;

shaxs intellektual salohiyatini rivojlantirishda adolat tamoyillarining rolini asoslab berish va bu jarayonni takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida milliy yuksalish jarayonida adolat tamoyillarini hayotga tadbiiq etish va adolatparvarlikni qadrlash omillari tanlab olingan.

Tadqiqotning predmeti Yangi O'zbekiston xalqining milliy yuksalishida adolat tamoyillarining o'rni va rolini hamda yoshlarda adolatparvarlik tuyg'ularini shakllantirish zaruratini ijtimoiy-falsafiy asoslashdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada analiz va sintez, kompleks yondashuv, tizimli-funksional yondashuv, kontent analiz, retrospektiv tahlil, dialektik, sinergetik ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

adolatparvarlikka oid konsepsiyalarning ijtimoiy munosabatlarni tashkil etish, manfaatlarni himoya qilish va muvozanatni ta'minlash, huquq va erkinliklarni himoyalash, g'oya va mafkuraga oid ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari, qonun ustuvorligi, ijtimoiy taqsimot, erkinlik, ta'lim, salomatlik, madaniy rivojlanish kabi

mexanizmlari va zamonaviy jamiyatda teng imkoniyat, ehtiyoj, ijtimoiy kafolat, mutanosiblik, rag‘batlantirish kabi namoyon bo‘lish me‘yorlari ochib berilgan;

Sharq va G‘arb ijtimoiy-ma‘naviy merosida adolat va adolatparvarlikka oid g‘oya va qarashlarning demokratik plyuralizm va yakdillik, sotsium manfaatlari va umumsivilizatsiyaviy qadriyatlar ustuvorligiga oid nazariy-metodologik ahamiyati, inson hayotida subordinatsion va iyerarxik, boshqaruvda axloqiy-ma‘naviy me‘yorlarga rioya etish va konsensusga erishuv kabi namoyon bo‘lish xususiyatlari hamda spiritualistik, istorisizm, ratsionalistik va gumanistik rivojlanish bosqichlari aniqlashtirilgan;

ijtimoiy davlat va fuqarolik jamiyati sharoitida adolatparvarlikning bandlikni ta‘minlash, moddiy boyliklarni byudjet asosida muvozanatlash va ijtimoiy faoliyatni olib borish kabi ustuvor yo‘nalishlari, yalpi ichki mahsulot hajmini oshirish, aholi daromadlarini oshirish, tug‘ilish va umr ko‘rish, sog‘liqni saqlash, ta‘lim, atrof-muhitni muhofaza qilishga oid ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni ijtimoiy adolat bilan olib borish dolzarbligi, kambag‘allikni kamaytirish, aholi turmush darajasini oshirish va ijtimoiy tengsizlikni bartaraf etish kabi ijtimoiy himoya siyosatini amalga oshirish zarurati asoslangan;

Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy davlatni barpo etishda adolatparvarlik tamoyillarining “ikkinchi avlod inson huquqlari” (ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy) ta‘minlash kabi funksional xususiyatlari, ularni amalga oshirishning ijtimoiy ta‘minot, daromadlarni taqsimlash, turmush darajasining minimumini belgilash, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash kabi mexanizmlari hamda xalq farovonligini ta‘minlash, ijtimoiy himoyalanganlik to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish va erkinlikni ta‘minlash kabi ustuvor yo‘nalishlari asoslab berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

barqaror rivojlanish maqsadlarining yo‘nalishlari, ko‘rsatkichlari hamda bu maqsadlarga erishish mexanizmlarining adolatparvarlikka oid ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari ochib berilgan;

Yangi O‘zbekistonda yoshlarni adolatparvarlik ruhida tarbiyalashning yo‘nalishlari va ustuvor vazifalari takomillashtirilgan;

O‘zbekistonda milliy taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida adolat tamoyillarini “inson qadri uchun” tamoyili asosida rivojlantirish, ta‘minlash hamda shakllantirishga qaratilgan islohotlarning falsafiy ahamiyati asoslab berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot jarayonida qo‘llanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar rasmiy manbalardan olinganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar, respublika va xalqaro konferensiyalarda sinovdan o‘tkazilganligi, tadqiqot ishi natijalari bo‘yicha berilgan xulosalar asosida takliflar ishlab chiqilgan bo‘lib, tavsiyalar amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarning ilmiy ahamiyati dissertatsiyada ilgari surilgan konseptual g‘oyalardan mamlakatimizda ijtimoiy davlatni barpo etish, ma‘rifiy jamiyatni shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqishda, adolat va adolatparvarlik g‘oyalarining shakllanish va rivojlanish konsepsiyalarini tadqiq etishda, taraqqiyot strategiyalari bu sohadagi islohotlarning amaliyotga tadbiq etish

jarayonlarida metodologik asos sifatida hamda targ'ibot-tashviqot ishlari, ta'lim-tarbiya jarayonlarini takomillashtirishda foydanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati olingan natijalardan davlat boshqaruv organlarining adolatli boshqaruvga qaratilgan yo'l xaritasi va dasturlarni ishlab chiqishda, yoshlar siyosatini amalga oshiruvchi muassasalar, fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatida, siyosiy partiyalar, nodavlat notijorat tashkilotlarining adolatparvarlikni targ'ib etish chora-tadbirlarini amalga oshirishda, "Falsafa", "Davlat va huquq nazariyasi va tarixi", "Ijtimoiy falsafa", "Ma'naviyatshunoslik" kabi fanlarni o'qitishda, talabalar bilan uyushtiriladigan davra suhbatlarida, yoshlar faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan maqsadli dasturlar ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbekiston xalqining milliy yuksalishida adolatparvarlikni qaror toptirishning ijtimoiy qonuniyatlarini tadqiq etish doirasida ishlab chiqilgan xulosalar asosida:

adolatparvarlikka oid konsepsiyalarning ijtimoiy munosabatlarni tashkil etish, manfaatlarni himoya qilish va muvozanatni ta'minlash, huquq va erkinliklarni himoyalash, g'oya va mafkuraga oid ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari, qonun ustuvorligi, ijtimoiy taqsimot, erkinlik, ta'lim, salomatlik, madaniy rivojlanish kabi mexanizmlari va zamonaviy jamiyatda teng imkoniyat, ehtiyoj, ijtimoiy kafolat, mutanosiblik, rag'batlantirish kabi namoyon bo'lish me'yorlariga oid nazariy umumlashma va xulosalardan Buxoro davlat universitetida bajarilgan PZ-202005236-raqamli "Oila psixologiyasi fanidan multimediya mahsulotini yaratish" (2021-2022 yy.) mavzusidagi innovasion-tadqiqot loyihasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Buxoro davlat universitetining 2023 yil 24 maydagi 01-04/01/1243-son ma'lumotnomasi). Natijada, oilada farzand tarbiyasini, yoshlarda adolatparvarlik tamoyillarini qadrlash, ularga amal qilish ko'nikmalarini shakllantirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqish imkoniyatini yaratgan;

Sharq va G'arb ijtimoiy-ma'naviy merosida adolat va adolatparvarlikka oid g'oya va qarashlarning demokratik plyuralizm va yakdillik, sotsium manfaatlari va umumsivilizatsiyaviy qadriyatlar ustuvorligiga oid nazariy-metodologik ahamiyati, inson hayotida subordinatsion va iyerarxik, boshqaruvda axloqiy-ma'naviy me'yorlarga rioya etish va konsensusga erishuv kabi namoyon bo'lish xususiyatlari hamda spiritualistik, istorisizm, ratsionalistik va gumanistik rivojlanish bosqichlariga doir xulosalar va tavsiyalardan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2021-2022 yillarda o'tkazilgan targ'ibot faoliyatida, jumladan, 2021-2022 yillarda O'zbekiston Respublikasida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini yanada oshirish, aholining intellektual salohiyati va dunyoqarashini yuksaltirishga, mafkuraviy immunitetini mustahkamlashga doir chora-tadbirlar dasturining II. "Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlarining mazmun va mohiyatini aholining keng qatlamlariga yetkazishga qaratilgan targ'ibot tadbirlari" yuzasidan "Uchinchi Renessans – ma'rifatli jamiyat sari" mavzusida o'tkazilgan targ'ibot ishlarida foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashi Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2023 yil 23 maydagi 02-11/471-son ma'lumotnomasi). Natijada, aholi o'rtasida faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, jamiyatda milliy

va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan demokratik tamoyillarni qaror toptirishga, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka samarali yetkazish, "Jaholatga qarshi ma'rifat" g'oyasi asosida jamiyatda ma'naviy-ma'rifiy tarbiya va targ'ibot-tashviqot ishlarini tashkil etishga xizmat qilgan;

ijtimoiy davlat va fuqarolik jamiyati sharoitida adolatparvarlikning bandlikni ta'minlash, moddiy boyliklarni byudjet asosida muvozanatlash va ijtimoiy faoliyatni olib boorish kabi ustuvor yo'nalishlari, yalpi ichki mahsulot hajmini oshirish, aholi daromadlarini oshirish, tug'ilish va umr ko'rish, sog'liqni saqlash, ta'lim, atrof-muhitni muhofaza qilishga oid ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni ijtimoiy adolat bilan olib borish dolzarbligi, kambag'allikni kamaytirish, aholi turmush darajasini oshirish va ijtimoiy tengsizlikni bartaraf etish kabi ijtimoiy himoya siyosatini amalga oshirishga oid amaliy taklif va tavsiyalardan O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasining ustav va dasturida belgilangan vazifalarni amalga oshirish, jumladan O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasining 2019 yil 1 noyabrda VI S'yezdida tasdiqlangan Dasturining II. "Davlat hokimiyati va boshqaruvini yanada demokratlashtirish, ma'naviy barkamol fuqarolik jamiyatini shakllantirishning ustuvor yo'nalishlari" bandi, IV. "Ijtimoiy sohani yanada rivojlantirish, mamlakatda ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh etishning ustuvor yo'nalishlari" bandi hamda VI. "Ma'naviy-ma'rifiy sohadagi ustuvor yo'nalishlar" bandida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi "Milliy tiklanish" demokratik partiyasining 2023 yil 29 maydagi 02/02-29-son ma'lumotnomasi). Natijada, 2020-2024 yillarga mo'ljallangan saylovoldi dasturida o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalarni belgilash, partiya tizimidagi hodimlarning siyosiy-huquqiy, ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishdagi bilim va ko'nikmalarini oshirish, o'quv-uslubiy hamda mafkuraviy targ'ibot ishlarining samaradorligini oshirishda nazariy-metodologik asos sifatida xizmat qilgan;

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy davlatni barpo etishda adolatparvarlik tamoyillarining "ikkinchi avlod inson huquqlari" (ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy) ta'minlash kabi funksional xususiyatlari, ularni amalga oshirishning ijtimoiy ta'minot, daromadlarni taqsimlash, turmush darajasining minimumini belgilash, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash kabi mexanizmlari hamda xalq farovonligini ta'minlash, ijtimoiy himoyalanganlik to'g'risida g'amxo'rlik qilish va erkinlikni ta'minlash kabi ustuvor yo'nalishlariga oid ilmiy xulosa va amaliy takliflardan Buxoro viloyati teleradiokompaniyasining 2022 yilda efirga uzatilgan "Assalom Buxoro" va "Sakkizinchi mo'jiza" ko'rsatuvlarining ssenariylarini tayyorlashda va tadqiqotchi bilan suhbat olib borishda foydalanilgan (Buxoro viloyati teleradiokompaniyasining 2023 yil 23 maydagi 02-09-134-son ma'lumotnomasi). Natijada, Yangi O'zbekistonda ijtimoiy davlatni barpo etishda adolatparvarlik tamoyillari, ijtimoiy davlat va fuqarolik jamiyati sharoitida adolatparvarlikni ta'minlashning ustuvor yo'nalishlari va yoshlarni adolatparvarlik ruhida tarbiyalashning vazifalariga oid xulosalar teleko'rsatuvlar mazmuni boyishiga, ularning ilmiy-ommabopligini ta'minlashga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 16 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola (4 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 130 betni tashkil etadi.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning “**Kirish**” qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi tavsiflangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti, predmeti, tadqiqotda qo‘llanilgan usullar yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan hamda dissertatsiya natijalarining joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e‘lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining “**Adolat va adolatparvarlik tamoyillarini tadqiq qilishning nazariy-metodologik masalalari**” deb nomlangan birinchi bobida adolat va adolatparvarlik tushunchalarning ijtimoiy-falsafiy kategoriya sifatida shakllanishi va rivojlanish metodologiyasi hamda Sharq va G‘arb mutafakkirlari ijodida adolatparvarlik to‘g‘risidagi qarashlar tahlili amalga oshirilgan. Ushbu bobda adolat, tenglik, ijtimoiy adolat, ularning milliy yuksalishdagi o‘rni va roli asoslab berilgan. Shuningdek, mavjud ijtimoiy-siyosiy tuzilmani o‘zgartirish va adolatli jamiyatga erishish uchun jamiyat subyektlarining faoliyatini nazarda tutuvchi ijtimoiy munosabatlar tizimidagi adolatning muhim xususiyatlari ilmiy-nazariy nuqtayi nazardan tadqiq etilgan.

Adolat mavzusi ijtimoiy taraqqiyotning muhim davrlarida, xalq va davlatning tarixiy taqdiriga ta‘sir ko‘rsatadigan chuqur ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar olib borilganda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Adolat muammosining keskinlashishi ijtimoiy va gumanitar fanlardan, jumladan, ijtimoiy falsafadan zamonaviy voqelikni sivilizatsiya kabi o‘zbek xalqining o‘tmishdagi tarixiy tajribasini, uning xususiyatlarini idrok etishni talab qiladi.

Dissertatsiyada ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlar o‘zgarishi sharoitida jamiyat hayotining barcha sohalarida erkinlik, qonun ustuvorligi va demokratiyani qaror toptirish borasida sa‘y-harakatlarning amalga oshirilayotganligi qayd etiladi. Ayniqsa, “Xalqimiz hamma narsadan ustun qo‘yadigan adolatni hayotimizda tom ma‘noda qaror toptirish eng asosiy vazifamizga aylandi. Qonun va adolat ustuvorligini ta‘minlash - Yangi O‘zbekistonni barpo etishning eng muhim shartidir”⁵.

⁵ Мирзиёев Ш. М. Янги Ўзбекистон стратегияси. - Тошкент: “O‘zbekiston”, 2021. – Б. 48.

Tadqiqotchi adolatparvarlik axloqiy ideal, oliy qadriyat va eng muhim insoniy turtki sifatida barcha zamonlar va xalqlar donishmandlari, olimu-fuzalolarining e'tiborini tortib kelayotganligini asoslab bergan. Ushbu hodisani ijtimoiy-falsafiy jihatdan tadqiq etishning g'arbona asosini qadimgi yunon mutafakkirlari Platon, Aristotel va Epikur va boshqalar yaratgan⁶. O'rta asrlarda adolatparvarlik diniy yondashuv doirasida, "ilohiy tartib" hodisasi sifatida, Xudo irodasi ifodasi sifatida talqin etilgan (ilohiyotchi Ioann, Avliyo Avreliy, Foma Akvinskiy va boshqalar)⁷. F.Bekon, T.Gobbs, J.Lokk, J.J. Russo, B. Spinoza, I.Kant, G.Hegel, P. Sorokin kabi mutafakkirlarning adolatni ta'minlashga oid g'oyalari Yangi davrda uni tadqiq etishning o'ziga xos metodologiyasini yangilashga asos bo'lib xizmat qildi⁸.

So'nggi davrlarda adolat mavzusi G'arb olimlarining, siyosiy liderlarining diqqat markazida bo'lib, bu "klassik" liberalizmning jiddiy inqirozini, kapitalistik mamlakatlarda ijtimoiylashuv tendensiyasining kuchayib borayotganini ko'rsatadi⁹.

Dissertatsiyada Sharq va G'arb mutafakkirlari ijodida adolatparvarlik to'g'risidagi qarashlar tahlili asosida adolat haqidagi klassik falsafiy va diniy qarashlar zamonaviy ijtimoiy-falsafiy qarashlardan jiddiy farq qilishi ta'kidlangan. Aristotel davridan beri falsafada adolatning konstruktiv va korreksion jihatlarini farqlanadi. *Birinchi* jamiyatda ijtimoiy imtiyozlarni taqsimlash bilan bog'liq bo'lsa, *ikkinchi* fuqarolik va jinoiy xususiyatga ega bo'lgan mavjud adolatsizlikni tuzatish bilan bog'liq.

Ijtimoiy-ma'naviy merosimizda adolatning uch jihatiga alohida e'tibor qaratilgan. *Birinchi*, axloqiy - bu hol ko'proq kishilararo munosabatda namoyon bo'lib, insonlar bir-biri bilan bo'lgan munosabatda tenglik qoidalariga rioya qilishi, o'ziga nimani ravo ko'rsa, boshqalarga ham shuni ravo ko'rish lozim. Inson o'zgalar bilan bo'lgan munosabatda xulq-odob qoidalariga rioya qilishi, ularni tahqirlamasligi, izzat-nafsigaga tegmasligi, tabiiy kamchiligini yuziga solmasligi, zulm o'tkazmasligi, kamtar va xushmuomala bo'lishi darkor. *Ikkinchi*, adolatning huquqiy jihati esa fuqarolarning huquqlari tengligida, ularning shariat qonunlariga amal qilishida ko'rinadi. *Uchinchi*, adolatning siyosiy mazmuni - davlatni boshqarishda, podshohlarning fuqarolarga munosabatida, mamlakatning gullab yashnashi va tinchlik, osoyishtalik va ahillik hukm surishida namoyon bo'ladi.

Sharq xalqlarining bir necha ming yillik tarixi shundan dalolat beradiki, eng murakkab davrlarda ham o'zbek xalqi murakkab tarix sinovlardan o'tishi, hayotning turli baland va past sinovlariga mardonavor dosh berib, qaddi-qomatini tik tutib yashashiga madad baxsh etadigan kuch - yuksak ma'naviyat va adolat fazilatini barcha narsadan ustun qo'yganligidadir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda, "Ajdodlarimiz armonlari o'sha davrda Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Muhammad Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Mansur Moturidiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi mutafakkir

⁶ Платон. Государство. - СПб.: Наука, 2005; Аристотель. Соч. В 4 т. Т. 4. - М., 1984. - С. 147; Лукреций. О природе вещей. // Антология мировой философии. В 4 т. Т. 1. - М. 1969. -С. 358;

⁷ Августин Аврелий. О граде божьем. Книга II. -М. 1986.

⁸ Карнаш Г. Социальная справедливость: философские концепции и российская ситуация. – Москва: Издательство Московского гуманитарного университета, 2011.

⁹ Кашников Б. Н. Концепция общей справедливости Аристотеля: Опыт реконструкции // Этическая мысль. Вып. 2. / Отв. ред. А. А. Гусейнов. - М., 2001.

bobolarimiz hayoti, faoliyati, asarlarida o'z talqinini topgan adolat va adolatparvarlik g'oyalari mujassam bo'ldi"¹⁰.

Dissertant fikricha, G'arb ijtimoiy-falsafiy tafakkurida shakllangan antik falsafadan bugungi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan adolatning obyektiv asosi mavjudligi haqidagi g'oya Aristotel qarashlarida boshqalarning manfaatlarini hurmat qilish, tenglik yoki mutanosiblik va umumiy manfaat qadimgi yunon falsafasidagi adolatparvarlikning muhim belgisi sifatida to'liq o'z ifodasini topgan. Yevropa tarixining turli davrlarida ijtimoiy adolatning o'rnatilishi davlatning muhim vazifalaridan biri, ijtimoiy barqarorlikning eng muhim sharti sifatida qaralgan. Zamonaviy davrda ijtimoiy adolatning utilitar-huquqiy talqinlari keng tarqalib, uni erkin va teng huquqli shaxslar o'rtasidagi huquq va erkinliklarni o'zaro tan olish to'g'risidagi kelishuv predmeti sifatida talqin qilish ommalashadi. Zamonaviy G'arb falsafasida adolatparvarlik tahlil qilingan qarashlarning o'ziga xos xususiyati adolat haqidagi mavhum nazariya va ijtimoiy amaliyot o'rtasidagi tafovutni bartaraf etishga intilish, adolatsizlikni yengishga urinishda namoyon bo'ladi.

Dissertatsiyada adolat ijtimoiy munosabatlar tizimida demokratik, axloqiy va insonparvarlik tamoyillari majmui ekanligi, ularga muvofiq jamiyatning boshqa a'zolari uchun xudbinlik, buzg'unchi xatti-harakatlardan o'z-o'zini cheklash bo'yicha mas'uliyat va majburiyatlarni aks ettirishi alohida ta'kidlangan. Jamiyatda ijtimoiy adolatni idrok etish darajasiga ish haqining o'zgarishi, soliq chegirmalarining ko'payishi yoki asosiy oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlari narxlarining o'zgarishi kuchli ta'sir ko'rsatishi, individual darajada insonning adolatni idrok etishi (yoki adolatsizlik) birinchi navbatda, jamiyatda mavjud bo'lgan, ijtimoiy jarayonlarning dezintegratsion¹¹ jarayonlar bilan bog'liq darajasiga ta'sir qilishi qayd etilgan.

Adolatparvarlikning o'ziga xos xususiyatlarini ijtimoiy munosabatlar kontekstida tahlil qilishda T.Parsons tomonidan asos solingan istiqbolli uslubiy antiteza sifatida yuzaga kelgan neo-institutsional yondashuv¹² muhim ahamiyat kasb etadi. Neoinstitutsionalizm doirasida adolatli jamiyatga dialektik aloqador bo'lgan ijtimoiy institutlar, munosabatlarning barqaror modellari va taqsimot muammosini tartibga soluvchi xatti-harakatlar normalari mavjud bo'lgan jamiyat sifatida qaraladi.

Dissertatsiyada adolatparvarlik jamiyatning quyidagi darajalarida namoyon bo'lishi qayd etilgan hamda asoslagan:

1. Kundalik o'zaro munosabatlarning mikro darajasida (iqtisodiy va ijtimoiy resurslarini kichik jamoalar ichida taqsimlash);

2. Ijtimoiy institutlar va tashkilotlarning (mezo)darajasida (bu turli ijtimoiy guruhlar hokimiyat va ta'sir o'tkazish uchun raqobatlashadigan o'ziga xos siyosat darajasi);

¹⁰ Мирзиёев Ш. М. Янги Ўзбекистон стратегияси. - Тошкент: "O'zbekiston", 2021. - Б. 16

¹¹ Parchalanish (lot. de- biror narsaning yo'qligi, bekor bo'lishi, yo'q bo'lib ketishi ma'nosini bildiruvchi prefiks va integer - yaxlit) - bir butunning parchalanishi, uning tarkibiy qismlariga bo'linishi. Parchalanish, fizikada - jismlar yoki moddalarning alohida zarrachalarga bo'linishi.

¹² Шаститко А. Е. Новая институциональная экономическая теория / 4-е перераб. и доп. изд. — М.: ТЕИС, 2010. - С.54.

3. Jamiyat tuzilishining makro darajasida (boshqaruv shakllari va asosiy siyosiy tartibotlar, iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy rejim belgilanadigan “konstitusiyaviy daraja”).

Adolat - yuksak ma'naviy qadriyat sifatida, o'z davrining huquqiy mezonlari asosida yashash, birovning moliga ko'z olaytirmaslik, haromdan hazar qilish, insof va diyonat, mehr-oqibat kabi xalqimizga xos bo'lgan ezgu fazilatlar Yangi O'zbekistonda ma'naviy taraqqiyotning asoslarini tashkil etadi. Bugungi kunda jamiyat hayotida inson huquq va erkinliklarining ro'yobga chiqarilishi, mulkka egalik hissining, tadbirkorlik va ishbilarmonlik kabi faoliyat shakllarining mustahkam qaror topishi, barcha fuqarolarning o'z imkoniyat va qobiliyatlarini namoyon qilishi uchun yetarli imkoniyatlar yaratilayotgani, hech shubhasiz, ana shunday uyg'unlikni ta'minlash uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning **“Barqaror rivojlanish va yuksalishda adolatparvarlikni qaror toptirishning ijtimoiy qonuniyatlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida adolat to'g'risidagi zamonaviy konsepsiyalar va ularning o'ziga xos xususiyatlari tahlil etilib, zamonaviy jamiyatlarda adolatning mohiyati, ko'rinishlari va funksiyalari hamda ijtimoiy qonuniyatlari ilmiy asoslangan. Ushbu bobda barqaror taraqqiyotda adolatni qaror toptirishga oid islohotlarni amalga oshirishda inson va umummilliy, umumxalq manfaatlarining uyg'unlashuv qonuniyatlari, shaxsda adolatparvarlik tuyg'ularini shakllantirish omillari ochib berilgan.

Rivojlangan demokratik mamlakatlarda kechayotgan iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy jarayonlardan begonalashishni bosqichma-bosqich bartaraf etish jarayoni adolatning predmetini chuqurroq tavsiflash, ijtimoiy taqsimot, ayirboshlash va mukofotlash munosabatlarining tavsifini nazarda tutadi. Jamiyat taqsimlash, ayirboshlash va mukofotlash munosabatlarining adolatliligini muntazam ravishda saqlab tursa, adolatli bo'lishi mumkin. Taqsimlash, ayirboshlash va mukofotlash munosabatlari, asosan, munosabatlar ishtirokchilarining tengligi yoki tengsizligi asosida amalga oshirilishi mumkinligi sababli, adolatni tenglashtirish va adolatni bo'lish (taqsimlash bilan adashtirmaslik kerak) haqida fikr yuritish mumkin bo'ladi.

Tadqiqotchi adolatni guruhlashtirishda *umumiy* va *maxsus* yoki xususiy adolat farqlanishini asoslab bergan. *Umumiy adolat* deganda, butun ijtimoiy tuzilmaning axloqiy qadriyatlarini, ijtimoiy tuzilishning tamoyillari yig'indisini, ijtimoiy institutlarning eng yuqori qonuniyligi tushuniladi. *Maxsus* yoki *xususiy adolat* deganda, tovarlarni taqsimlash, ularning o'zaro almashishi va jamiyatdagi ma'lum xususiyatlarning uning subyektlari tomonidan namoyon bo'lishida “axloqiy jihatdan tasdiqlangan mutanosiblik” tushuniladi. Xususiy adolat jamiyat ichida integratsion funksiyani bajaradigan o'ziga xos normalar tizimidir. Umumiy va xususiy adolat bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, axloqiy qadriyatning ideali va baholovchi me'yoridir.

Adolat tushunchalarini tasniflash va tatqiq etish natijasida ilm-fan tarixida ma'lum konsepsiyalar shakllangan. Ularda shaxs va jamiyat haqidagi fundamental tushunchalarning o'ziga xos xususiyatlarini tasniflashda asos sifatida foydalanilgan. Bu esa adolat nazariyalarida ikkita yo'nalish mavjudligini asoslash imkonini beradi. Tadqiqotchi ulardan birinchisini *kooperativ* – yaxlit, ikkinchisini - *individuallik* deb baholaydi. Platon, Aristotel, Gegel kabi olimlar tegishli bo'lgan birinchi yo'nalishda

adolat hamkorlik g'oyasidan kelib chiqadi, u intersub'yektiv shaxs konsepsiyasiga asoslanadi. Gobbs, Lokk, Bentam va zamonaviy liberallar mansub bo'lgan ikkinchi tur - individual tushunchasidan kelib chiqadi va jamiyatda individual maqsadlarga xizmat qiluvchi korxonadan boshqa narsani adolat deb hisoblamaydi. Zamonaviy adolatparvarlik to'g'risidagi qarashlar mualliflari tomonidan eng ko'p qo'llaniladigan adolat tushunchalarining tasnifi mazkur mafkuraga ko'proq mos keladi.

Tadqiqotchining fikricha, zamonaviy konsepsiyalarning umumiy xususiyati "adolat o'zaro manfaat sifatida" va "adolat xolislik sifatida"¹³ shakllanganligida namoyon bo'ladi. Shunga ko'ra, birinchi guruhga Roulz, Nozik, utilitarizm, feminizm kabi nazariyalar, ikkinchi guruhga libertar nazariyalar mansubdir. Bu ikki yo'nalish o'rtasidagi farq maxsus nazariy tadqiqot natijasida kelib chiqadigan va ijtimoiy o'zaro ta'sir ishtirokchilarining manfaati bilan bevosita bog'liq bo'lmagan adolat tamoyillarining mavjudligini nazarda tutadi.

Dissertant adolat to'g'risidagi zamonaviy qarashlarda tenglik yoki iyerarxik adolatga bo'lgan me'yoriy majburiyatga asoslanilganlikni qayd etadi. U faqat tenglik tushunchalariga bog'liq. Adolatning tenglik tushunchalari, o'z navbatida, liberal (jumladan, libertar) adolat tushunchalarini farqlash imkonini beradigan asosiy mafkura bilan sug'oriladi. Liberal konsepsiyalarga axloqiy nazariya asosida Gobbsning axloqiy skeptisizmini, Yunning axloqiy ta'limotga olib boradigan utilitarizmini, Lokkning tabiiy huquqlar nazariyasi va boshqalarni ajratib ko'rsatish mumkin. Kantning ideontologiyasi: ya'ni nazariyasi zamonaviy g'arbona liberalizmning nazariy asosi hisoblanadi. Zamonaviy liberal adolat nazariyalarining falsafiy asosini tashkil etuvchi fundamental g'oyalar qatoriga individualizm, ijtimoiy shartnoma, axloq, jamiyat va adolatning o'zini kiritish mumkin.

Zamonaviy adolat tushunchalari yagona me'yoriy asosga ega bo'lib hisoblanadi¹⁴. Bu konsepsiyalarda teng erkinlik, ijtimoiy kafolatlar berish, mulkni ijtimoiylashtirish orqali teng hayot imkoniyatlarini eng yuqori idealini joriy etish, jamoalardagi odamlarning tengligini amalga oshirishga qaratilgan g'oyalar ilgari suriladi. Bu xususiyatlar bunday nazariyalarni "zamonaviy loyiha"ga bog'lash imkonini beradi.

Tadqiqotda liberalizm adolatni ta'minlaydigan umumiy qadriyatlar va munosabatlarga egaligi ta'kidlanib, u erkinlik va avtonomiyani qadrlashi asoslanadi.

Shuning uchun:

- shaxsning o'ziga xosligi va demokratiya va inson huquqlarining o'rnatilishini talab qilishi;

- liberalizm boshqaruv shakli sifatida absolyutizm va diktaturaning barcha shakllarini inkor etishi;

- liberalizm bozor erkinligini nazarda tutishi;

- liberalizm odamlar o'rtasidagi munosabatlarda paternalizmni inkor etishi;

- liberalizm tolerantlikni, toqatsizlarga nisbatan bag'rikenglikni nazarda tutishi, uning chegaralari, albatta, har bir alohida holat uchun ko'rib chiqilishi kerakligi

¹³ Qarang: Barry B. Theories of Justice. Berkley. - Los Angeles: University of California Press, 1989. - P.46

¹⁴ Kymlicka W. Contemporary Political Philosophy: An Introduction. - Oxford: Clarendon Press, 1990. - P.53

ko'rsatiladi. Bundan adolatning yana ikkita o'ziga xos tamoyillarini ajratish mumkin bo'ladi:

Birinchi tamoyil: har bir shaxs erkinlik bilan bog'liq bo'lgan teng asosiy erkinliklarning umumiy tizimida teng huquqqa ega bo'lishi kerak.

Ikkinchi tamoyil: ijtimoiy va iqtisodiy tengsizliklar shunday tashkil etilishi kerakki, ular bir vaqtning o'zida:

a) adolat tamoyiliga muvofiq jamiyatning eng kam ta'minlangan qismi manfaati uchun xizmat qilsin;

b) lavozimlar va idoralar hamma uchun ochiq bo'lsin.

Adolat barcha holatlarda modernizatsiya bilan birgalikda ijtimoiy birdamlikni, siyosiy-huquqiy erkinliklarni, demokratiya va sog'lom raqobatni ta'minlashga intiladi. Ma'rifiy jamiyatni faqat o'sish va moddiy ne'matlarning mavjudligi, aholi turmush darajasini oshirish bilan, shuningdek, ijtimoiy taqsimot tamoyillari va aholining barcha guruhlari uchun asosiy ne'matlarning mavjudligi bilan bog'lab bo'lmaydi. Biroq, adolat tamoyillari, qadriyatlar va normalarining o'ziga xos ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari hududning mintaqaviy xususiyatlariga qarab farqlanadi, bu esa, o'z navbatida madaniy, tarixiy va mafkuraviy omillarning tarixan aniqlangan maxsus kombinatsiyasi bilan bog'liq bo'lgan patriarxal, konservativ, an'anaviy va jamoaviy tuyg'ularni jonlantirish jarayonlariga bog'liq, albatta.

Dissertatsiyada zamonaviy jamiyatlarda shakllanayotgan adolatparvarlik g'oyasining quyidagi tarkibiy, me'yoriy va qadriyatli komponentlari tavsiflangan:

1) Konservatizm va kollektivizm (jamiyat tomonidan asosiy e'tibor guruh maqsadlariga va ijtimoiy o'zaro ta'sirning barcha subyektlarining bir-biridan o'zaro bog'liqligiga qaratilgan);

2) Iyerarxiya (resurslar va rollar huquqlar, majburiyatlar va individual imtiyozlarning vertikal taqsimlanishiga muvofiq taqsimlanadi);

3) Ixtiyoriylik (shartnomalar va bitimlarni tuzishda ijtimoiy majburiyatlarni qabul qilish o'z manfaatlarini va boshqa tomonning manfaatlarini o'zaro hisobga olishni nazarda tutadi);

4) Egalitarizm (ya'ni, muzokaralar va maslahatlashuvlarda masalalarni qo'yish va muhokama qilishda tomonlarning tengligi, kelishuvlarga erishish, ijtimoiy adolatga erishish dasturlari bajarilishini nazorat qilishda tenglik);

5) Mas'uliyat, ya'ni barcha ijtimoiy manfaatlarini ularning ijtimoiy muhitining asosiy guruhlari idrok etish va adolatning umumiy talablari kontekstida hisobga olish;

6) Qonuniylik, ya'ni qonun hujjatlari normalariga va qabul qilingan shartnomalarga aniq rioya qilish;

7) Atrofdagi olamning uyg'unligi va saqlanishi axloq va qadriyatlar baholanadigan me'yorlar sifatida. Bu shuningdek, fuqarolik, jamoatchilik ishtiroki, madaniyatlararo ta'lim va muloqot qadriyatlarini o'z ichiga oladi;

8) Oila (oila asosiy qadriyatlar uzatiladigan jamiyatning asosiy birligi hisoblanadi).

